

O'QUVCHILARDA AGRESSIVLIKNING SHAKLLANISHI HAMDA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Seytniyazova Yulduz Maxmudovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq tumani 18-sonli maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda agressivlikning shakllanish sabablari, psixologik omillari hamda uni bartaraf etishning samarali yo'llari yoritiladi. O'quvchilarning emotsional rivojlanishi, ijtimoiy muhit ta'siri, tarbiya va psixologik profilaktikaning ahamiyati tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: agressivlik, o'quvchi, emotsional rivojlanish, psixologik profilaktika, tarbiya, ijtimoiy muhit, muloqot, psixologik yordam, oila, maktab.

KIRISH

O'quvchilarda agressivlikning shakllanishi bugungi ta'lim jarayonida uchraydigan muhim psixologik muammolardan biridir. Agressiv xulq-atvor ko'pincha bolaning ichki hissiy zo'riqishi, tushunilmaslik hissi, e'tibor yetishmasligi yoki salbiy muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bunday holat o'quvchining o'qish faoliyatiga, tengdoshlar bilan munosabatiga va shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agressivlikning shakllanishida bir nechta psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Eng avvalo, emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarining yetishmasligi, tez jahllanish, o'zini ifoda eta olmaslik kabi holatlar agressiv reaksiyalarga olib keladi. Shuningdek, oiladagi nizolar, zo'ravonlikka moyil muhit, ota-onaning e'tiborsizligi yoki haddan tashqari qat'iy talablari ham bolada salbiy xulq shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Maktab muhitidagi omillar ham agressivlikka ta'sir qiladi. O'qituvchilar bilan nizolar, tengdoshlar tomonidan rad etilish, o'zini himoya qilish ehtiyoji yoki ijtimoiy mavqeni saqlab qolishga urinish agressiv xatti-harakatlarga sabab bo'ladi. Ayrim o'quvchilar e'tibor qozonish yoki o'zini namoyon qilish maqsadida ham tajovuzkor xulq ko'rsatishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan, agressivlikni bartaraf etishda eng muhim vazifa — uning kelib chiqish sabablarini aniqlashdir. Har bir o'quvchining individual xususiyatlari, oilaviy sharoiti va ijtimoiy muhitini o'rganish orqali muammoning ildizi aniqlanadi. Psixologik diagnostika, kuzatish va suhbatlar bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi.

Agressivlikni kamaytirishda emotsional tarbiya muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini tanish, ifoda etish va nazorat qilish ko'nikmalarini

o'rgatish zarur. Muloqot madaniyatini rivojlantirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqalarni tushunish va hurmat qilishga o'rgatish agressiv xatti-harakatlarni kamaytiradi.

Oila bilan hamkorlik bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalarga farzand bilan muloqot qilish, tanqid o'rniga tushunish, qo'llab-quvvatlash, ijobiy rag'batlantirish usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar berish zarur. Mehrli va ishonchli muhit bolada xavfsizlik hissini shakllantiradi va agressiv reaksiyalarni kamaytiradi.

Maktab sharoitida psixolog va pedagoglarning hamkorligi asosida treninglar, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mashg'ulotlari, jamoaviy o'yinlar tashkil etish samarali natija beradi. Sport, san'at va ijodiy faoliyatga jalb etish o'quvchining energiyasini ijobiy yo'nalishga buradi.

Psixologik yordamning muhim yo'nalishlaridan biri — o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishdir. O'zini qadrlash hissi shakllangan o'quvchi salbiy yo'l bilan o'zini namoyon qilishga kamroq moyil bo'ladi. Individual maslahatlar, qo'llab-quvvatlash, ijobiy motivatsiya agressivlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar biz g'arb kontsepsiyalarining xilma-xilligini tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan eng muhimlaridan uchtasini ajratishimiz mumkin. Birinchisiga, agressivlik shaxsning tug'ma, instinktiv mulki sifatida qaraladigan nazariyalar kiradi (bunga psixoanalitik nazariyalar kiradi). Ikkinchisi, agressiyani frustratsiyaga bo'lgan xatti-harakat sifatida tasvirlaydi. Uchinchisi, agressivlikni o'rganish natijasida shakllanadigan xulq-atvorning xususiyati deb hisoblaydigan tushunchalardan iborat (xulq -atvor nazariyalari).

L.Berkovitz "frustratsiya-agressiya" kontseptual sxemasiga uchta muhim o'zgartirish kiritadi: a) frustratsiya agressiv harakatlarda amalga oshmaydi, lekin unga tayyorgarlikni rag'batlantiradi; b) hattoki tayyor holda bo'lsa ham, agressiya tegishli shartlarsiz sodir bo'lmaydi; v) frustratsion vaziyatlardan agressiv harakatlar yordamida chiqib ketish individda bunday harakatlarning odatlanishiga tarbiyalaydi.

Agressiv reaksiyalarning namoyon bo'lish kuchida ham gender farqlari mavjud. O'g'il bolalar jismoniy tajovuz reaksiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, yoshi kattaroq qizlar esa tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi: og'zaki, bilvosita va negativizm. Ehtimol, bu o'g'il bolalarning tajovuzkorligi "tashqi tomonga", qizlar esa "ichkariga" qaratilganligi bilan bog'liqdir.

I.A.Furmanov bolalar agressivligini tushuntirishning turli uslubiy va kontseptual yondashuvlari, bolaning xatti-harakatlarida tajovuzning paydo bo'lishini rag'batlantiruvchi yoki qo'zg'atuvchi psixologik va ijtimoiy omillar, uni psixodiagnostikalashning bevosita va yordamchi usullari, shuningdek, psixo-ijtimoiy korrektsiya yo'nalishlarini aniq ochib bergan. Uning ta'kidlashicha, bolalar o'rtasidagi

konfliktlar narsalar va o'yinchoqlarni egallash bilan bog'liq bu chegaralar kesishganda paydo bo'ladi, ya'ni bir nechta bolalar boshqa bolalarning o'yinchoqlarini olish orqali o'z chegaralarini kengaytirishga harakat qiladi. Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o'quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'ldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan.

Maktab bolalarida agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari — bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta'sir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta'siri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ'ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqdalar.

Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzand tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti harakatlarga nisbatan ota-onaning agressiv reaksiyasi — oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Maktab o'quvchilari orasida agressiv xulq-atvorning bartaraf etishda, avvalo shu narsa ko'zga tashlanadiki, har qanday holatda ham bolalarni be'etibor qoldirish kerak emas, ayniqsa maktab o'quvchilarini, o'smir yoshlarni, chunki ular huddi endi o'sib kelayotgan novda kabidir. Uni qaysi tomonga shakllantirsa shunday shakllanib boradi.

O'quvchilarda agressiv xulq-atvorni yo'qotish yoki oldini olishdagi birinchi mexanizm bu ota-onan va maktab va o'qituvchi orasidagi to'g'ri yo'lga qo'yilgan aloqalar mexanizmidir. Bu mexanizm yo'lga qo'yilsa bolalar hech bir vaqt o'zlari be'etibor qolishmaydi. Keyingi mexanizm bu – sog'lom muhit mexanizmi. Bunda oiladagi muhit sog'lom bo'lishi kerak, bolalar bo'sh vaqtida nima bilan band, o'rtoqlari kim, vaqtini kim bilan nimlarga sarflayabdi, internetdan nimalar uchun foydalanyabdi kabi savollarga oilad faqatgina sog'lom muhit tarsi mavjud bo'lgandagina ota-onalarimiz javob topa olishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda agressivlikning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo'lib, uni bartaraf etish tizimli yondashuvni talab etadi. Oila, maktab va psixolog hamkorligi, ijobiy muhit yaratish, emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchilarda sog'lom xulq-atvorni shakllantirish mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Agressiya va agressiv xulq-atvor orasidagi o'zaro bog'liqlik xarakterini aniqlashga urinib ko'raylik. Balki insonning agressiya kechinmalari uni vayrona harakatlarga olib keladi. Boshqa tomondan, zo'ravonlik sodir etib, inson o'tkir emotsional qo'zg'alish holatida ham, shu bilan birga to'liq sovuqqonlik holatida ham bo'lishi mumkin. Agressor o'z qurbonini yomon ko'rishi umuman shart emas. Ko'pchilik insonlar bog'lanib qolgan va chin yurakdan sevadigan o'z yaqinlarini qiynaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- a. Фарфиева К.А. Оммавий ахборот воситалари таъсирида талабаларда ижтимоий тасаввурлар шаклланишининг ўзига хослиги (Телевидение мисолида): Дис. ... психол. фан. номзоди. – Т.: ЎзМУ, 2005. – 148 б.
- b. Вильданова Д. О проблемы психология агрессивного поведения. // Педагогик таълим ж. – 2006. - № 4. – Б. 98-100.
- c. Olimov. L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi og'ishgan psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020. – 496 b.
- d. Ziyo.net